

“O‘zbekkomos” agentligi tizimida 2024-yil birinchi choragi davomida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash holati to‘g‘risidagi

M A ’ L U M O T

2024-yilning birinchi choragida “O‘zbekkosmos” agentligi tizimida murojaatlar bilan ishlash O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni talablari asosida tashkil etildi.

Mazkur masala birinchi chorakning har oyida “O‘zbekkosmos” agentligining xizmat majlislarida va har haftada Agentlik direktori huzurida o‘tkazilgan yig‘ilishlarda tanqidiy muhokama qilinib, murojaatchilar tomonidan ko‘tarilgan masalalarni amaldagi qonunchilikka muvofiq joyida hal qilish hamda xodimlarning kasbiy malakalari va shaxsiy mas’uliyatini oshirish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berib borildi.

Hisobot davrida “O‘zbekkomos” agentligiga **jami 4 ta** (*yanvar - 1 ta, fevral - 2 ta, mart - 1 ta*) murojaat kelib tushgan bo‘lib, ularning barchasi jismoniy shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga Ishonch telefonini orqali kelib tushgan murojaat) orqali yo‘llangan.

2024-yilning birinchi choragida “O‘zbekkosmos” agentligiga yuridik shaxslar tomonidan murojaatlar kelib tushmagan.

Hisobot davrida “O‘zbekkomos” agentligiga kelib tushgan murojaatlar turlari bo‘yicha **2 ta** taklif (50 %) va **2 ta** ariza (50 %), murojaat shakllari bo‘yicha 4 ta elektron ko‘rinishdagi murojaatlarni tashkil etgan.

“O‘zbekkomos” agentligiga kelib tushgan murojaatlarning **2 tasi** (50 %) taklif, **1 ta** (25 %) masalada Agentlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmasdan masalada yordam ko‘rsatish hamda **1 ta** (25 %) murojaat muqaddam berilgan taklifni ko‘rmasdan qoldirish va ortga qaytarish masalasida yo‘llangan bo‘lib, natijalari to‘g‘risida murojaatchilarga o‘z vaqtida ma’lum qilinishi ustidan monitoring o‘rnatildi.

Murojaatlarning 2 tasi **Farg‘ona viloyati** (Qo‘qon shahri), 1 tasi **Qoraqalpog‘iston Respublikasi** (Xo‘jayli tumani) va 1 tasi **Toshkent shahrida** (Yangihayot tumani) istiqomat qiluvchi fuqarolardan kelib tushgan.

Murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha **2 ta** murojaatda ko‘tarilgan masala **qanoatlantirilgan** bo‘lsa, **2 ta** murojaat **huquqiy ma’lumot berish** orqali **hal qilingan**.